

UO'K(UDC, УДК): 82.091

BOLALAR ADABIYOTIDA BADIY PSIXOLOGIZM VA JANR O'ZIGA XOSLIGI²⁶

Rasulmuxamedova Dilfuza Zokirovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Jahon adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi
 Toshkent, O'zbekiston
 E-mail: Rasulmuxamedova@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola bolalar adabiyotining nazariy-poetik asoslari va undagi badiiy psixologizm masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Bolalar adabiyoti pedagogika, psixologiya va adabiyotshunoslik fanlari tutashgan nuqtada rivojlanuvchi o'ziga xos badiiy tizim sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bolalar asarlariga xos bo'lgan didaktik mazmunning badiiy shaklga ko'chishi, syujet qurilishidagi dinamika va obrazlar tizimidagi psixologik haqqoniylik tamoyillari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada jahon va milliy adabiyotshunoslikdagi nazariy qarashlar umumlashtirilib, badiiy psixologizmning yosh kitobxon estetik didi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi funksional xususiyatlari ilmiy asoslab beriladi. Maqolada estetik tamoyil va badiiylik mezonlari muhim nazariy tushuncha sifatida ko'rib chiqilib, bolalar adabiyotida estetik ta'sir o'quvchining yosh xususiyatlariga mos, sodda va ravon, shu bilan birga badiiy jihatdan yuksak tasvir vositalari orqali ta'minlanishi zarurligi asoslanadi. G'arb adabiyotshunosligida keng qo'llaniladigan "double address" tamoyili tahlil qilinib, bolalar uchun mo'ljallangan matnlarning bir vaqtning o'zida ham bola, ham kattalar auditoriyasiga turli darajadagi ma'no qatlamlarini taqdim etishi ochib beriladi.

KALIT SO'ZLAR

Bola psixologiyasi, psixologik ruhiyat, grotesk, absurd, satira, qora hazil, giperbola, psixologik aniqlik.

Received: November 25, 2025

Accepted: December 2, 2025

Available online: February 25, 2026

²⁶ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Rasulmuxamedova D. Bolalar adabiyotida badiiy psixologizm va janr o'ziga xosligi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 370-382.

ARTISTIC PSYCHOLOGY AND GENRE DISTINCTIVENESS IN CHILDREN'S LITERATURE

Rasulmukhamedova Dilfuza Zakirovna

*Senior Lecturer of Department of World Literature,
Uzbek State University of World Languages
Tashkent, Uzbekistan*

Email: Rasulmuxamedova@mail.ru

ABSTRACT

This article is devoted to the study of the theoretical and poetic foundations of children's literature and the issues of artistic psychologism within it. The work analyzes children's literature as a unique artistic system developing at the intersection of pedagogy, psychology, and literary studies. The research highlights the transformation of didactic content into artistic forms, plot dynamics, and the principles of psychological authenticity in the system of characters. Furthermore, the article synthesizes theoretical perspectives from world and national literary scholarship, providing a scientific basis for the functional role of artistic psychologism in shaping the aesthetic taste and spiritual worldview of young readers. In the article, the aesthetic principle and criteria of artistry are considered as an important theoretical concept, and the necessity of ensuring aesthetic influence in children's literature through means of depiction appropriate to the age characteristics of the reader, simple and fluent, and at the same time artistically high is substantiated. The "double address" principle, widely used in Western literary studies, is analyzed, and it is revealed that texts intended for children simultaneously present different levels of meaning to both children's and adult audiences.

KEY WORDS

Child psychology,
psychological psyche,
grotesque, absurd,
satire, dark humor,
hyperbole,
psychological accuracy.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ И ЖАНРОВОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Расулмухамедова Дилфуза Закировна

Старший преподаватель,

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: Rasulmuxamedova@mail.ru

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Данная статья посвящена исследованию теоретико-поэтических основ детской литературы и вопросов художественного психологизма в ней. Детская литература рассматривается как специфическая художественная система, изучаемая на стыке педагогики, психологии и литературоведения. В ходе исследования раскрываются принципы трансформации дидактического содержания в художественные формы, динамизм построения сюжета и психологическая достоверность системы образов, присущие детской литературе. Также в статье обобщаются теоретические взгляды мирового и отечественного литературоведения, научно обосновываются функциональные особенности художественного психологизма с точки зрения его роли в формировании эстетического вкуса и духовного мировоззрения юного читателя. Кроме того, в данной работе рассматриваются эстетические принципы и критерии художественности как важные теоретические понятия, обосновывается необходимость обеспечения эстетического воздействия в детской литературе доступными и уместными, при этом высокохудожественными изобразительными средствами, соответствующими возрастным особенностям читателей. Анализируется принцип «double address», широко используемый в западном литературоведении, и демонстрируется, что тексты, предназначенные для детей, одновременно содержат значения разного уровня, предназначенные как для детской, так и для взрослой аудитории.

Детская психология, психологизм, гротеск, абсурд, сатира, черный юмор, гипербола, психологическая точность.

KIRISH

Bolalar adabiyoti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, davriy munosabatga ko'ra ular turli toifalarda o'rganiladi. Bu asosan yoshga doir vaziyat bolan baholanadi. Bolalar adabiyoti – yosh avlodning ruhiy, tafakkuriy, axloqiy va estetik kamolotini shakllantirishga xizmat qiluvchi alohida adabiy tizimdir. Mazkur tizim pedagogika, psixologiya va badiiy-estetik nazariyalar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib, bolalar shaxsining idrok xususiyatlariga mos tarzda shakllangan. Bolalar adabiyoti adabiyotning boshqa turlaridan o'zining maqsad va vazifalari, matn qurilishi, obrazlar tizimi, til soddaligi va mazmunning tarbiyaviy yo'nalishi bilan ajralib turadi.

Bolalar adabiyoti – bu faqat bolalar uchun yozilgan matnlar majmuasi emas, balki bola shaxsining estetik, psixologik va axloqiy rivojiga xizmat qiluvchi murakkab adabiy tizimdir. Uning nazariy asoslari badiiylilik, tarbiyaviylilik, psixologik moslik, estetik ta'sir kuchi va janr o'ziga xosliklarining uyg'unligidan tarkib topadi. Bolalar adabiyoti nazariyasida asosiy tamoyillar pedagogika, psixologiya va adabiyotshunoslikning kesishgan nuqtasida shakllangan bo'lib, yosh kitobxonning idrok xususiyatlari bilan bevosita bog'liq.

Bolalar adabiyotining birlamchi vazifasi – yangi avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularga insonparvarlik, ezgulik, adolat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarni singdirishdir. Biroq bu jarayon didaktik ohangda emas, balki badiiy obrazlar, voqealar, qahramonlarning xulqi orqali tabiiy ravishda berilishi kerak.

Estetik tamoyil va badiiylilik mezonlari – bolalar adabiyotida estetik ta'sir o'quvchining yoshiga mos, sodda va ravon, ammo badiiy yuksak tasvir vositalari bilan ta'minlanishi kerak. M.Suyumov ta'kidlaganidek, “*bolalar uchun yozilgan asar yengil o'qilishi, ammo chuqur mazmun kasb etishi kerak*” (Suyumov M., 2010, 45). Bu tamoyil G'arb adabiyotshunosligida “*double address*” deb yuritiladi, ya'ni matn ham bola, ham katta o'quvchi uchun turli darajadagi ma'no beradi.

Nodelmannning ta'rifiga ko'ra, bolalar adabiyoti “*oddiy shakl bilan murakkab*

mazmun o'rtasidagi nozik muvozanat"dir (Nodelman P., 2008, 112). Demak, sodda tildagi matn badiiy qiymatdan mahrum emas; aksincha, u yuqori mahorat talab qiladi.

Bola psixologiyasiga moslik tamoyili – bolalar adabiyotining eng muhim tamoyili sifatida, matn bolaning psixologik rivojlanish bosqichiga mos bo'lishi. Suyumov va Jumaboyev yosh kitobxonlarni uch guruhga ajratadi: maktabgacha yosh, kichik maktab yoshi va o'smirlik. Har bir bosqich o'z qabul mexanizmi, idrok darajasi va tasavvur kuchiga ega (Jumaboyev M., 2004, 18).

Masalan: kichik yoshdagi bolalar uchun she'riy ritm, takrorlar, yorqin obrazlar muhim; 9–12 yoshdagilar uchun syujet dinamizmi, qahramonning ichki kechinmalari, sarguzasht va fantastika muhim; o'smirlar uchun psixologik ziddiyatlar, murakkab ijtimoiy mavzular qiziqarli bo'ladi.

Nikolayeva bolalar adabiyotida obrazlar *“katta adabiyotdan farqli ravishda, oson qabul qilinadigan psixologik tozalik”* (Nikolayeva M., 2005, 76) bilan tasvirlanishini ta'kidlaydi.

Tarbiyaviylik tamoyili – Bolalar adabiyoti ma'naviy-axloqiy g'oyalarning badiiy shaklda berilishini ko'zlaydi. Bu didaktika emas, balki nazokat bilan kiritilgan, syujet orqali tabiiy seziladigan tarbiya hisoblanadi. Jamilova fikriga ko'ra, *“bolalar adabiyoti bolaga nasihat bermaydi, balki uning qalbiga ezgulik urug'ini ekadi”* (Jamilova B., 2012, 54).

Tarbiyaviylik quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- yaxshilik-yomonlik to'qnashuvi;
- halollik, adolat, mehnatsevarlik targ'ibi;
- do'stlik, mehr, vatanparvarlik g'oyalari;
- hayotiy xulosa chiqarishga yo'naltirish.

Qiziqarli syujet va dinamika tamoyili – bolalar o'qish motivatsiyasini syujetning qiziqarli bo'lishi belgilaydi. Peter Hunt bolalar adabiyotida *“voqealar tezligi, konfliktning aniq ko'rinishi va yechimning ravshanligi”*ni asosiy poetik

xususiyat sifatida ko'rsatadi (Hunt P., 1991, 32).

Fantaziya va realizm uyg'unligi – Fantaziya, bolalar adabiyotining eng qadimiy va eng ta'sirchan poetik vositalaridan biri. U bolaning tasavvuri va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Ammo fantasiya ma'lum darajada hayotiy mantiq bilan uyg'un bo'lishi kerak.

Andersen, Kerrol, Lindgren, Dal – barchasi fantastik motivlardan foydalanib, haqiqatga yaqin bo'lgan badiiy olam yaratgan. Reynolds fikricha, bolalar adabiyoti “*fantastik orqali hayot haqiqatini tushuntirishga yordam beradigan noyob vosita*”dir (Reynolds K., 2011, 88).

Tilda soddalik va obrazlilik – tilning soddaligi – badiiylikning yengillashuvi emas. Aksincha, bola uchun sodda, ravon, lekin estetik ma'noga ega til yaratish yuqori professional mahorat talab qiladi. M. Jumaboyevga asoslanib aytilganda, bolalar adabiyoti “*tabiiy nutq, jonli dialog va musiqiy ritmga asoslanadi*”.

Shaxsiy erkinlik va bola subyekti tamoyili – zamonaviy bolalar adabiyotida bola markaziy figura sifatida qaraladi. Kerrollning Elis, Lindgrenning Pippi, Tvenning Tom Soyer obrazlari “*bola – faol subyekt, tashabbuskor va mustaqil*” degan tamoyilni isbotlaydi. G'arb adabiyotshunoslari buni “*child-centered approach*” ya'ni “*bolaga yo'naltirilgan yondashuv*” deb ataydilar.

Bolalar adabiyotining yetakchi nazariy kategoriyalaridan yana biri – bu ***axloqiy-mazmuniy tarbiya tamoyilidir***. Bolalarga mo'ljallangan asarlar tarixan didaktik maqsadni ko'zlagan bo'lsa-da, zamonaviy adabiyot bu tarbiyani bevosita pand-nasihat tarzida emas, syujet, obraz, konflikt va voqea rivojidan tabiiy tarzda chiqarib beradi. Shu bois axloqiy tarbiya bolalar asarlarining yashirin, ammo asosiy semantik qatlamini tashkil etadi.

Jamilovaning ta'kidlashicha:

“*Bolalar adabiyoti yosh kitobxonga nafaqat bilim, balki ezgulik, vatanparvarlik, estetik did singdirishning eng samarali vositasidir*” (Jamilova B., 2012, 67). Bu fikr axloqiy tarbiya elementlarining adabiy matnning ichki badiiy tizimiga singib ketishi zarurligini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, Suyumov va Jumaboyevlar axloqiy tarbiyaning ahamiyatini aniqlab: *“Badiiy asarning mo‘jizakor ta’sir kuchi yosh qalblarda ezgulik, vatanparvarlik, badiiy-estetik didni shakllantiradi”*, – deya ta’kidlaydilar. Bu yondashuv bolalar adabiyotida axloqiylikning “asosiy, ammo yashirin qatlam” ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni bolaga pand-nasihat tarzida ko‘rsatma berilmaydi, balki bola o‘z xulosasiga o‘zi keladi.

G‘arb bolalar adabiyotida axloqiy mazmun asosan “bilvosita didaktika” orqali beriladi. Mutaxassislar buni implicit morality deb ataydi. Piter Hunt bolalar adabiyotini tahlil qilib: *“Bolalar asarlarida ma’naviy mazmun syujetning o‘zida yashiringan bo‘ladi; nasihat aytilmaydi, lekin o‘quvchi xulosa chiqaradi”* (Hunt P., 1991, 45), – deb qayd etadi.

Perry Nodelman esa bolalar adabiyotidagi ikkiyoqlama manzil (double address) haqida gapirar ekan, asarning ichki axloqiy qatlamini aynan shu *“ikki manzillilik” orqali ochadi: bola soddalikni ko‘rsa, kattalar chuqur ma’noni ko‘radi* (Nodelman P., 2008, 112).

Sharq an’analari bolalar adabiyotiga zamin bo‘lgan asarlar – *“Qobusnoma”*, *“Guliston”*, *“Mahbub ul-qulub”*, *pandnoma* va *ma’vizatlar* – bevosita axloqiy xulosa chiqariladigan ko‘rinishlarga ega bo‘lgan. *“O‘zbek bolalar adabiyoti didaktik adabiyot asosida shakllangan bo‘lib, unda axloqiy tarbiya bosh mezon bo‘lgan”* (Jamilova B., 2012, 102). Ammo XX asrga kelib didaktikaning ochiq pand-nasihat uslubi zamonaviy badiiy talablarga moslashib, “bilvosita tarbiyaviy” modelga o‘tdi.

Bolalar adabiyotidagi axloqiy tarbiyaning samaradorligi shundaki, bola qahramonning xatti-harakatiga, uning tanlovlariga, voqealar oqibatiga qarab o‘z xulosasiga o‘zi keladi. Masalan, Mark Tvenning *“Tom Soyerning sarguzashtlari”* asarida do‘stlik, jasorat, mas’uliyat kabi g‘oyalar Tomning amaliy xatti-harakati orqali shakllanadi. Asarda muallif bola ongiga axloqiy xulosalarni “majburan singdirmaydi”, aksincha uni syujet oqimida orqali his ettiradi. Xuddi shuningdek, S.Levisning *“Narnia xronikalari”* da ezgulik -yovuzlik qarama-qarshiligi diniy -

didaktik mazmunga ega bo'lsa-da, bu bola uchun ertak-mifologik shaklda taqdim etiladi. Bola uchun bu "sarguzasht", kattalar uchun esa "axloqiy tanlov falsafasi" bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek bolalar adabiyotida axloqiylik eng muhim nazariy tamoyil sifatida qaraladi. B.Jamilova ta'kidlagandek, *"Bolalar adabiyotida eng ko'p ishlatiladigan vosita – axloqiy tarbiya; unda bola yosh xususiyatiga mos milliy va umuminsoniy qadriyatlar mujassam bo'ladi"* (Jamilova B., 2012, 102).

Badiiy asarning mavzular ko'lamini jihatdan, halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, adolat, odob-axloq, boshqalarga hurmat kabi qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Bu qadriyatlar xalq ertaklarida ham asosiy g'oya sifatida ham "Shum bola", "Boyqush va vayrona", "Oygul bilan Baxtiyor" kabi asarlarda axloqiy mazmun obrazlar orqali ochiladi.

Umumiylashtirib aytadigan bo'lsak, bolalar adabiyotida axloqiy-mazmuniy **tarbiya tamoyili** bevosita emas, bilvosita berilishi, syujet, obraz va konflikt orqali shakllanishi, bola ongida tabiiy xulosa uyg'otishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mujassam etishi bilan alohida nazariy qadriyatga ega. Bu tamoyil bolalar adabiyotini pedagogik vosita emas, balki badiiy-estetik tarbiya maktabi sifatida talqin qilishga imkon beradi.

Bolalar adabiyotining zamonaviy taraqqiyot bosqichida **real hayot muammolarini badiiy aks ettirish tamoyili** alohida ahamiyat kasb etadi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida bolalar uchun yozilgan asarlar mavzulari anchayin kengaydi: oilaviy inqiroz, ijtimoiy tengsizlik, yoshlarning psixologik iztiroblari, nogironlik muammosi, zo'ravonlik, migratsiya, urush oqibatlari va jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar realistik talqinda berila boshladi. Bu jarayon bolalar adabiyotining yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Bolalar adabiyotida voqelikning haqqoniy aks etilishi jahon adabiyotshunosligining asosiy manbalaridan birida real hayotni aks ettirish bolalar adabiyotining muhim sharti sifatida belgilangan:

"Bolalar adabiyoti ham voqelik bilan, hayotdagi turli ijtimoiy hodisalar bilan

uzviy bog'liq bo'lib, ularni o'ziga xos vositalarda badiiy aks ettiradi... voqelik hayotiy, haqqoniy tasvirlanishi kerak" (Ustinova E., 2011, 42). Bu shundan dalolat beradiki, bolalar adabiyotida muammoli ijtimoiy mavzularni yoritish – yangi emas, balki an'anaviy vazifadir. Faqat zamonaviy bosqichda bu mavzular yanada murakkab, ko'p qirrali ko'rinishda tasvirlana boshlagan.

Realistik yo'nalish bolaga hayotiy vaziyatlarni to'g'ri talqin qilishni, muloqot, konflikt, murosa, empatiya kabi ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatadi. Jumaboyevning fikricha: *"Bola dunyo voqealarini o'z nuqtayi nazari bilan qabul qiladi, yozuvchi esa hayotni uning idrokiga mos holda chuqur anglashga o'rgatadi"* (James H., 1884, 12) Demak, bolalar realizmining asosiy mohiyatini ochib berib, real hayot muammolarini badiiy ko'rsatish orqali bolaning hayotiy dunyoqarashini shakllantiradi.

Dunyo bolalar adabiyotida 1980–2000-yillardan boshlab bir qator ijtimoiy mavzular keng o'rin egalladi, ijtimoiy muammolar tasviri – adabiyotning kengaygan maydoni aylandi. Xususan, oilaviy ajralish va bolalarning psixologik iztiroblari mavzusi (Jaklin Uilson asarlarida), urush oqibatlari, yetimlik, travma mavzulari (Katerin Petersonning "Terabitia ko'prigi" asarida), ijtimoiy tengsizlik, maktabdagi zo'ravonlik (Rake Palasioning – "Mo'zija" asarida), migrant bolalar hayoti, madaniy to'qnashuvlar kabi mavzular namoyon bo'ladi.

Bu tamoyil o'zbek adabiyotida ham mavjud bo'lganini ko'ramiz. Masalan, xalq ertaklari va tarixiy asarlarda ham real hayotdagi ijtimoiy sinf farqlari, mehnat va adolat masalalari o'z aksini topgan:

"Ertaklarda xalq hayoti, kurashi, urf-odatlarini tasvirlanadi; mehnatsevarlar taqdirlanadi, yalqovlar jazolanadi" (Jumaboyev M., 2004, 89). Demak, realizm bolalar adabiyotida doimo mavjud bo'lgan, faqat zamonaviy adabiyot real muammolarni yanada ochiqroq, murakkabroq talqin qila boshladi.

Xorij bolalar adabiyotida zamonaviy real muammolar – bolalar adabiyotining yangi mavzulari sifatida ko'rilmogda. Xususan, bugungi kunda bolalar adabiyoti quyidagi murakkab mavzularni ham ko'taradi-ki, bularning har

biri bolani hayotiy fikrlashga o'rgatadi.

Badiiy asar ijodkor tafakkuri mahsulidir va u o'zida inson va jamiyat hayoti, taqdir yo'llarini mujassam etadi. Har bir ijod namunasi badiiylik qonuniyatlariga asoslanib yaratiladi. Badiiylik qonuniyatlari esa vaqt o'tgani sari rivojlanib, sayqallanib boradi. Badiiy asarda kitobxon hukmiga topshirilayotgan voqea-hodisalar va qahramonlar shunchaki voqealar ketma-ketligi asosida hikoya qilib berilishi mumkin, ammo badiiy tasvir vositalarisiz ijod na'munasi san'at asari darajasiga chiqa olmaydi. Asardagi obrazlarni yorqin va haqqoniy ochib berish uchun badiiy tasvir vositalari bilan birgalikda psixologik tasvir vositalaridan ham foydalandi. Asarda muallif tomonidan qahramon ichki dunyosiga chuqur kirib borish, obraz ruhiy olamining batafsil tavsifi, qalb kechinmalarining tasviri "badiiy psixologizm" deb yuritiladi.

Badiiy psixologizm atamasi psixologik tahlil, psixologik tasvir, psixologik obraz, psixologik roman, psixologik hikoya va psixologik realizm kabi istilohlar bilan uzviy bog'liq. Badiiy psixologizm muayyan bir asarda inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish, uning aqliy, kognitiv jarayonlarining murakkablik va nozikliklarini aks ettirishga intiladi. Shu bilan birga, badiiy psixologizm qahramonlar ichki olami va tashqi voqelik o'rtasidagi o'zaro ta'sirga alohida e'tibor qaratadi. Bu yondashuv kitobxonga qahramonlarning subyektiv tajribalari, asl intilishlari, istaklari, ichki ziddiyatlarini anglash imkoniyatini beradi. Badiiy psixologizm nafaqat xarakter rivojlanishini tushunishga yordam beradi, balki o'quvchilarni asar bilan hamdardlik munosabatida bo'lishga undaydi. Natijada, o'quvchilar o'z ruhiy kechinmalari borasida mulohaza yurita boshlaydi.

Badiiy psixologizm tushunchasi bir qancha G'arb olimlari tomonidan alohida o'rganilgan bo'lib, ular asarda ijodkorlarning qahramonlar ruhiyatiga ko'zgu tutishi muhimligiga urg'u berib o'tganlar. Zamonaviy adabiyotshunoslik nazariyotida muhim o'rin tutgan ingliz yozuvchisi va adabiy tanqidchi Genri Jeyms shunday degan edi: *"Perhaps, after all, the greatest psychologist is not the metaphysician, but the novelist"* (James H., 1884, 12), ya'ni eng buyuk ruhshunos-metafizik olim

emas, balki romanavis hisoblanadi. U o'zining ilmiy asarlarida psixologiyaning romanning yagona asl asosi ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Bu ta'kid uning adabiyot inson ongining murakkabliklarini chuqur o'rganishi, tashqi voqealar va syujet mexanizmlaridan ko'ra qahramonlar ichki dunyosi va ruhiyatiga ustuvorlik berishi kerakligini bildiradi. Genri Jeyms uchun roman qiymati qahramonlarning ichki olami, tafakkuri va hissiyotining nozik tarzda aks etgani bilan belgilanadi. Zero, bu aks kitobxonlarga qahramonlar ichki dunyosi bilan yaqin aloqa o'rnatish imkonini beradi.

Turli adabiy doiralarda "Badiiy psixologizm" tushunchasi turlicha istilohlar bilan ifodalanadi. G'arb adabiyot maktabida qahramon psixologiyasini tasvirlashga oid hodisa asosan "psixologik realizm" atamasi bilan yuritiladi. Ba'zi tadqiqotchilar uni yo'nalish, janr yoki adabiy oqim sifatida talqin qiladilar. Har doim badiiy psixologizm bilan aynan sinonim bo'lmasa-da, ushbu kontekstda bu ikki termin ma'noviy yaqinlikka ega: har ikkisi ham inson ruhiyati va ichki kechinmalarini atroflicha tasvirlashga urg'u beradi.

XULOSA

Bolalar adabiyoti bu shunchaki yosh kitobxonlar uchun mo'ljallangan sodda matnlar yig'indisi emas, balki pedagogika, psixologiya va badiiy estetika tamoyillari asosida qurilgan murakkab va yaxlit intellektual tizimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu adabiyot turining asosi bo'lgan tarbiyaviylik tamoyili zamonaviy davrda ochiq pand-nasihatdan voz kechib, bilvosita va yashirin badiiy mazmunga ko'chmoqda.

Mavzu doirasida olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi umumiy xulosalar shakllandi:

Bolalar adabiyotida qahramon ruhiyatini tasvirlash — kitobxonning asar qahramoni bilan hissiy aloqa o'rnatishini ta'minlaydi. Ichki kechinmalar, o'y-fikrlar va ruhiy iztiroblar qanchalik jonli aks etsa, asarning bolaga ta'siri shunchalik samarali bo'ladi.

Bugungi kun bolalar adabiyoti hayotning nafaqat yorqin tomonlarini, balki

ijtimoiy muammolar, ziddiyatlar va murakkab hayotiy vaziyatlarni ham qamrab olmoqda. Bu esa bolaga dunyoni barcha ranglari bilan tushunishga va empatiya (hamdardlik) ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Bolalar uchun mo'ljallangan asar tili sodda bo'lishi mumkin, ammo uning zamiridagi g'oya va obrazlar tizimi chuqur falsafiy ma'no kasb etishi — uning badiiy qiymatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Umuman olganda, bolalar adabiyoti yosh avlodning estetik didini tarbiyalash barobarida, ularning mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Badiiy psixologizm va realistik tasvirning uyg'unligi esa ushbu adabiyotni nafaqat bolalar, balki barcha yoshdagi kitobxonlar uchun ham birdek qadrli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ustinova, E. *Literaturnaya skazka v XX veke*. – Moskva: Flinta, 2011. – 280 s.
2. Vygotskiy, L. S. *Voobrazhenie i tvorchestvo v detskom vozraste*. – Moskva: Pedagogika, 1991. – 96 s.
3. White, E. B. *Charlotte's Web*. – New York: Harper & Brothers, 1952.
4. White, E. B. *Stuart Little*. – New York: Harper & Brothers, 1945.
5. Zipes, J. *Sticks and Stones: The Troublesome Success of Children's Literature*. – New York: Routledge, 2001. – 284 p.
6. Жамилова, Б. *Ўзбек болалар адабиёти: ўқув қўлланма*. – Тошкент: Ўқит., 2012. – 240 б.

REFERENCE

1. Ustinova, E. (2011). *Literary fairy tale in the 20th century*. Moscow: Flinta, 280 p.
2. Vygotskiy, L. S. (1991). *Voobrazhenie i tvorchestvo v detskom vozraste*. Moskva: Pedagogika, 96 s.
3. White, E. B. (1952). *Charlotte's Web*. New York: Harper & Brothers.

4. White, E. B. (1945). *Stuart Little*. New York: Harper & Brothers.
5. Zipes, J. (2001). *Sticks and Stones: The Troublesome Success of Children's Literature*. New York: Routledge. 284 p.
6. Jamilova, B. (2012). *Uzbek Children's Literature: Textbook*. Тошкент: Ўқув, 240 p.